

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

# ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**

доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухраhon Пиржановна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Холбеков Абугани</b> ЛИТЕРАТУРНЫЙ МЕТОД КАК СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ В АНАЛИЗЕ ТОТАЛИТАРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «1984»).....	8
<b>2. Султанова Эътибор</b> МЕХАНИЗМЫ ПОЛИТИКИ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	15
<b>3. Латипова Нодира</b> МЕСТО И РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ В СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЕ.....	21
<b>4. G'afforova Mavlyuda</b> JAMIYAT HAYOTIDA XOTIN-QIZLARNING SOTSIOMADANIY QIYOFASI.....	29
<b>5. Tagiyeva Gulsum, Tursunboyev Jahongir</b> O'ZBEKISTONDA ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	38
<b>6. Xolbekov Abdugani, Axmedov Tuychi</b> IJTIMOIY XAVFLAR SHAROITIDA MAHALLANING ROLI VA ANAMIYATI.....	51
<b>7. Якубов Ильдар</b> КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ РОЛИ ГОСУДАРСТВА: ПОЛИТИКО-СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД.....	57
<b>8. Хасанова Мавлюда, Низамов Шохрухжон</b> РОЛЬ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФИЛИАЛАХ РОССИЙСКИХ ВУЗОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	63
<b>9. Mannanova Nilufar</b> BUYUK BRITANIYA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA KOMPETENSIYA MODELLARINING RIVOJLANISH AMALIYOTI.....	71
<b>10. Berdimuratova Alima, Baymurzaev Azamat, Berdimuratov Nauriz</b> JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI.....	78
<b>11. Radjabova Aziza</b> XALQARO MUNOSABATLAR VA JAHON SIYOSATIDA GENDER FENOMENI: FEMINISTIK NAZARIYANING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI.....	87
<b>12. Ixtiyarov Farxod</b> RAQAMLI TENGSIZLIKNI INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI.....	93
<b>13. Ergasheva Mehribon</b> “GENDER MADANIYATI” TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA ASOSIY JIHLATLARI.....	100
<b>14. Mengliyev Atabek</b> REPRODUKTIV SALOMATLIKNI BELGILOVCHI IJTIMOYIY DETEMINANTLAR: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	107


<b>15. Джураева Анна, Сеитов Азамат</b> СОЦИАЛЬНАЯ ЦЕНА УСТОЙЧИВОСТИ: УРОКИ КРИЗИСА 2008 ГОДА И РИСКИ “ГОЛЛАНДСКОЙ БОЛЕЗНИ” ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	118
<b>16. Mo‘minov Zokirjon</b> TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINI YUQUMLI FUNKSIYALARI: IJTIMOIIY- STRAUKTURAVIY TAHLIL.....	125
<b>17. Husenov Sirojiddin</b> “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAКATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	132
<b>18. Kalanova Sabohat, Saidov Ulug‘bek</b> RAQAMLI JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARINING DIFFERENSIATSIYASI.....	140
<b>19. Toshbo‘riyeva Sevara</b> TA‘LIM VA OILAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YOSH AYOLLAR IJTIMOIIY MOBILLIGIGA TA‘SIRI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	150
<b>20. Mannanov Erkin</b> ETNOTURIZMNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARIGA BIR NAZAR.....	157
<b>21. Артыкова Алёна</b> ОРИЕНТАЦИЯ НА ЧЕЛОВЕКА: НОВЫЙ ВЕКТОР РАЗВИТИЯ МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	164
<b>22. Zaitova Sitara</b> O‘ZBEKISTONDA KAM TA‘MINLANGAN OILALARNI MANZILLI QO‘LLAB- QUVVATLASH MEХANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	177
<b>23. Raximjonova Gulzira</b> DAVLAT BOSHQARUVI SHAFFOFLIGINI TA‘MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O‘RNI: STATISTIK VA METODOLOGIK TAHLIL.....	186
<b>24. Ro‘yiddinova Aisha</b> O‘ZBEKISTONDA ISHONCHLI AXBOROT MUHITINING HOLATI VA UNING XALQARO KO‘RSATKICHLARDAGI O‘RNI.....	196
<b>25. Xaydarova Javohira</b> RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MEХANIZMLARI.....	203

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Ergasheva Mehribon,**  
Samarqand davlat universiteti,  
Tayanch doktoranti (PhD)  
e-mail: mehribone5@gmail.com

### “GENDER MADANIYATI” TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA ASOSIY JIHLTLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21111705>

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada gender madaniyati tushunchasining mohiyati, mazmuni va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini tahlil qilinadi. Gender madaniyati insonlarning ayol va erkaklarga nisbatan shakllangan ijtimoiy qarashlari, qadriyatlarini, me'yorlari hamda xulq-atvor tizimini ifodalovchi muhim ijtimoiy hodisa sifatida yoritiladi. Shuningdek, gender tengligi, gender stereotiplari, oilada va ta'lim tizimida gender madaniyatining shakllanish omillari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada gender madaniyatini rivojlantirishning demokratik jamiyat qurish, inson huquqlarini ta'minlash hamda yoshlar ongida tenglik va tolerantlik tamoyillarini mustahkamlashdagi ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot davomida ilmiy manbalar tahlili, qiyosiy yondashuv va sotsiologik qarashlardan foydalanilgan. Natijada gender madaniyatini yuksaltirish jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va adolatni ta'minlashning muhim omillaridan biri ekanligi xulosa qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Gender madaniyati, gender tengligi, gender stereotiplari, ijtimoiy munosabatlar, gender siyosati, teng huquqlilik, ijtimoiylashuv, tolerantlik, oilaviy tarbiya, ta'lim tizimi, demokratik jamiyat, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, gender ong, madaniy qadriyatlar.

**Эргашева Мехрибон,**  
Самаркандский государственный университет,  
Базовый докторант (PhD)  
e-mail: mehribone5@gmail.com

### ПОНЯТИЕ “ГЕНДЕРНАЯ КУЛЬТУРА”: СУЩНОСТЬ И ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется сущность, содержание и роль понятия гендерной культуры в развитии общества. Гендерная культура освещается как важное социальное явление, выражающее сформированные социальные взгляды, ценности, нормы и систему поведения людей по отношению к женщинам и мужчинам. Также научно обоснованы гендерное равенство, гендерные стереотипы, факторы формирования гендерной культуры в семье и системе образования. В статье раскрывается значение развития гендерной культуры в построении демократического общества, обеспечении прав человека и укреплении принципов равенства и толерантности в сознании молодежи. В ходе исследования использовались анализ научных источников, сравнительный подход и социологические взгляды. В результате

делается вывод о том, что повышение гендерной культуры является одним из важных факторов обеспечения социальной стабильности и справедливости в обществе.

**Ключевые слова:** Гендерная культура, гендерное равенство, гендерные стереотипы, социальные отношения, гендерная политика, равноправие, социализация, толерантность, семейное воспитание, система образования, демократическое общество, права человека, социальная справедливость, гендерное сознание, культурные ценности.

**Ergasheva Mehribon,**  
Samarkand State University,  
Basic doctoral student (PhD)  
e-mail: mehribone5@gmail.com

## THE CONCEPT OF “GENDER CULTURE”: ESSENCE AND MAIN ASPECTS

### ABSTRACT

This article analyzes the essence, content, and role of the concept of gender culture in the development of society. Gender culture is highlighted as an important social phenomenon that reflects the established social views, values, norms, and behavioral systems of people regarding women and men. Gender equality, gender stereotypes, and factors for the formation of gender culture in the family and education system are also scientifically substantiated. The article reveals the importance of developing gender culture in building a democratic society, ensuring human rights, and strengthening the principles of equality and tolerance in the minds of young people. In the course of the research, an analysis of scientific sources, a comparative approach and sociological views were used. As a result, it is concluded that raising gender culture is one of the important factors in ensuring social stability and justice in society.

**Keywords:** Gender culture, gender equality, gender stereotypes, social relations, gender policy, equality, socialization, tolerance, family upbringing, education system, democratic society, human rights, social justice, gender awareness, cultural values.

### KIRISH

Aholining turli qatlamlari o'rtasidagi geografiya (shahar va qishloq), etnik kelib chiqishi, yoshi, ma'lumoti va boshqa toifalari bo'yicha mavjud tengsizliklar mamlakatlar o'rtasidagi va mamlakat ichidagi rivojlanish darajasidagi tengsizliklar asosida yotadi. Butun insoniyat bo'lingan ikkita eng katta ijtimoiy guruh - bu ayollar va erkaklar. Ushbu ikki ijtimoiy guruh o'rtasidagi inson rivojlanishidagi farqlar eng muhim, doimiy va universaldir.

Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va ta'lim olish, siyosiy hayotda faol va teng ishtirok etish va ish bilan ta'minlash global hamjamiyat uchun hamon muammoli bo'lib qolmoqda. Shu bois, inson taraqqiyotida gender tengsizliklarini o'lchash, ayollar va qizlar imkoniyatlarini kengaytirish butun dunyo bo'ylab ustuvor vazifalar bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, gender tengligiga erishish sohasida keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 28 maydagi "2030-yilgacha gender tengligiga erishish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi SQ-297-IV-sonli Qarori qabul qilindi [1]. Ushbu Strategiyada erkaklar va ayollar o'rtasida tenglik tamoyillarini barcha jabhalarda joriy etish, shuningdek, jamiyat hayotida ayollarning ishtiroki va huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi 2023-yilgi Qonuni davlat organlarining gender tengligini ta'minlash sohasidagi vazifalarini takomillashtirish hamda tenglikni amalga oshirish mexanizmlarini yanada mustahkamlashni nazarda tutadi [2]. Ushbu hujjatlar mamlakatda gender tengligiga erishish, ayollar huquqlarini himoya qilish va ular uchun teng imkoniyatlar yaratish borasida muhim ahamiyatga ega.

### METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda gender madaniyati tushunchasining nazariy mazmuni, uning shakllanish omillari va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritish maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini gender nazariyasi, sotsiologik yondashuvlar hamda inson huquqlari konsepsiyasi tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Xususan, gender madaniyatiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan hisobotlar tahlil qilindi. Gender tengligi va gender madaniyatining o'zaro bog'liqligi qiyosiy tahlil asosida o'rganildi.

Shuningdek, gender madaniyatining tarkibiy elementlari – gender bilimlari, gender qadriyatlari, gender stereotiplari va gender xulq-atvori tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida tarixiylik va mantiqiylik tamoyillariga tayangan holda gender madaniyati tushunchasining evolyutsiyasi hamda zamonaviy talqinlari o'rganildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida turli ilmiy manbalardagi nazariy qarashlar o'zaro solishtirildi va umumlashtirildi. Olingan natijalar gender madaniyatining mohiyatini ochib berish, uning asosiy jihatlari aniqlash hamda yoshlar va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ilmiy asoslash imkonini berdi.

### ASOSIY QISM

Rivojlanib, taraqqiy etib borayotgan jamiyatning har bir sohasida erkaklar qatorida ayollar ham zamon bilan ham nafas bo'lishga harakat qilishmoqda. Bugun ayollar nafaqat uy ishlari, bola tarbiyasi bilan mashg'ul, balki "ham oilasini, ham o'z sevgan ishini" uddalashga harakat qilishmoqda. Shunga qaramay, gender tengligiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan ayrim omillar sifatida yuzaga chiqayotgan, rivojlanishning eng o'tkir muammolari mavjud bo'lib, bu tenglikka erishish, ayniqsa, jamiyatda ham, oilada ham erkak va ayolning gender tengligiga erishish eng og'ir masalalardan biri bo'lib qolmoqdadir. Shu munosabat bilan gender madaniyati tushunchasini yoritish zarur.

Gender madaniyati jinsga qarab belgilanadi va jins o'z navbatida ayollar va erkaklar o'rtasidagi biologik farqlarni bildiradi. Bu fiziologik farqlar tabiat tomonidan belgilanadi va universal, aniq va umuman doimiydir. Biz tug'ilgan biologik, jismoniy va genetik tarkibga biologik jinsiy aloqa deyiladi. Bolaning jinsi bizning qarorlarimiz va harakatlarimiz uchun asos bo'lib xizmat qiladi – bolaga qanday munosabatda bo'lish, unga nima o'rgatish, qanday sovg'alar berish, qanday kiyim kiyish, qanday uy ishlarini belgilash, qaysi ta'lim bolaga ko'proq mos kelishi, qiz yoki o'g'il bola, keyin esa kasb, hayotdagi tanlov va hokazo. O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi biologik farqlarga asoslanib, jamiyat ular uchun turli xil normalar, xatti-harakatlar standartlari va rollarni belgilaydi.

Gender rollari, deb ataladigan narsalar "ayol" va "erkak" dunyosini yaratishga yordam beradi. Erkak dunyosida o'g'il bolalar kuchli, faol va oqilona bo'lishga o'rgatiladi, ular menejer bo'lishga, yuqori haq to'lanadigan lavozimlarni egallashga va jamoat hayotida hukmronlik qilishga da'vat etiladi. Ayollar dunyosida qizlar o'g'il bolalardan ko'ra zaifroq, ko'proq hissiyotli, tarbiyali, passiv bo'lishga o'rgatiladi va uy ishlari va to'lovsiz ishlar bilan cheklanadi. Shunday qilib, ikki dunyo qarama-qarshi bo'lib, yashirin assimetriya shakllanadi, bu erda bir jins boshqasida hukmronlik qiladi.

"Gender" atamasi yangi ma'noda ilk bor 1968-yilda psixanalitik Robert Stoller tomonidan "Pol va gender" nomli kitobida ishlatilgan. Keyinchalik Entoni Giddens "gender" atamasi ayol va erkak o'rtasidagi biologik farqlarga emas, balki ularning xulq-atvori va identifikatsiyasini belgilaydigan ijtimoiy konstruksiyalarga tegishli ekanligini tushuntirgan [3].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, gender deganda erkaklar va ayollarning ijtimoiy xulq-atvorini va ular o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydigan jamiyat madaniyati bilan belgilanadigan ijtimoiy konstruksiya, xususiyatlar majmuini tushunish mumkin. Gender ma'lum bir ijtimoiylashuv tizimi, mehnat taqsimoti, madaniy me'yorlar, jamiyatda qabul qilingan rollar va stereotiplar orqali quriladi. Gender ijtimoiy jarayonlarni tushunish vositasidir. Rossiyalik sotsiologlar E.Zdravomislova va A.Temkina ta'kidlashicha, gender – bu ta'lim, kasbiy faoliyat, hokimiyatga kirish, jinsiy munosabatlar, oilaviy rollar va reproduktiv xatti-harakatlarda individual imkoniyatlarni belgilaydigan ijtimoiy maqomdir [4].

Kichik yoshdan boshlab o'g'il bolalar va qizlarga turli gender rollar belgilanadi, ularga jamiyat tomonidan belgilangan erkaklar va ayollar vazifalarini bajarishni o'rgatishadi. Ushbu jarayon – gender ijtimoiylashuvi deb ataladi va jamiyatda erkak va ayol rollarini mustahkamlashga qaratilgan.

Gender ijtimoiylashuvi asosiy vositalar yordamida qo'llab-quvvatlanadi, masalan, oila, ota-onalar farzandlarini “erkak” va “ayol” rollariga o'rgatadigan joy; maktab, unda o'qituvchi va o'quvchilar orqali gender stereotiplari kuchayadi; jamoat joylari, bolalar va qizlar uchun o'yinchoqlar va kiyim-kechak taklif qilinadigan joylar; va ommaviy axborot vositalari, ular an'anaviy gender normalari va stereotiplarni uzatadi. San'at, til va madaniyat ham bu jarayonda katta rol o'ynaydi. Shuni yodda tutish kerakki, gender rollari va me'yorlari doimiy emas — ular vaqt o'tishi bilan o'zgarishi, ijtimoiy o'zgarishlarga moslashishi va madaniy kontekstga bog'liq holda shakllanishi mumkin.

Muayyan jamiyatga mansub bo'lgan gender tiplar haqidagi tasavvurlar aniq tarixiy davr uchun xosdir. Gender stereotiplar shaxsning yoshligidan boshlab, ijtimoiylashish jarayonida shakllanadi. Bunda jamiyatda qaror topgan madaniy xulq-atvor me'yorlari, shaxslararo madaniy munosabatlar, urf-odatlar va muhit alohida ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiylashish mahsuli sifatida alohida ijtimoiy rollarni o'zlashtirish ko'nikmalari namoyon bo'ladi. Turli bosqichlarda ijtimoiylashish omili sifatida kiyimlar, so'z vositasida amalga oshirilgan murojaatlar, otaonalarning talablari, o'yinchoqlar, xalq og'zaki ijodi va yozma badiiy adabiyot namunalari, radio, televideniya, kino, maktab ta'limi, tengdoshlari va sinfdoshlarining fikrlari, ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni ko'rsatish mumkin.

Xovstedning ta'kidlashicha, gender rollardagi farqlar turli madaniyatlarda gender rollarning farqlanishi orqali namoyon bo'lib, ular muayyan madaniyatdagi maskulistik va feministik darajalar orqali ifodalanadi. Maskulistik madaniyatdagi shaxslar yutuqlarga erishishning yuqori motivasiyasiga ega bo'ladilar. Ular hayot mazmunini ko'plab ishlarni bajarish, doim band bo'lishda ko'radilar. Feministik madaniyatga mansub shaxslar esa, oilaviy hayot bilan ko'proq band bo'lib, o'zlari bajaradigan rollarda tenglikka erishishni istaydilar. Buni Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvesiya kabi davlatlarning fuqarolari misolida ko'rish mumkin.

Xovstedning fikriga ko'ra, erkaklik – bu milliy madaniyatning atributi bo'lib, u ijtimoiy qadriyatlarining qat'iyatlilik (ishonch) va materializm bilan tavsiflanadigan darajasini ifodalaydi. Ayollik esa, milliy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, boshqalarga nisbatan munosabat va e'tibor darajasini namoyon qiladi [5].

Gender rollari kelib chiqishi jihatidan qat'iy biologik nazariyalar, xususan, evolyutsion psixologiya, empirik ma'lumotlar orqali qo'llab-quvvatlanmaydi. Lekin insonning keng doiradagi xulq-atvoriga ta'sir qiladi. Masalan, shaxsning tanlagan kiyimi, kasbi, narsalarga yondashuv uslubi, shaxsiy munosabatlar hamda ushbu munosabatlarda o'zini qanday tutishi hisobga olinadi. Umuman olganda, mavjud ilmiy dalillar shuni ko'rsatadiki, gender rivojlanishiga nafaqat biologik, balki kognitiv va ijtimoiy omillar ham ta'sir qiladi.

Gender roli atamasi keng tushuncha bo'lishiga qaramay, an'anaviy tarzda ayollarni xususiy sohada, erkaklarni esa ijtimoiy sohada ushlab turadi. Ba'zan turli guruhlar, ayniqsa feministik harakatlar o'zlari zulmkor va zo'rvonlik deb hisoblaydigan gender rollari aspektlarini o'zgartirishga harakat qilishadi. Umuman olganda, bugungi kunga qadar to'plangan ilmiy bilimlar shuni ko'rsatadiki, turli jins vakillari deyarli hamma narsada bir-biriga o'xshashdir, garchi juda kam va nisbatan kichik istisnalar mavjud bo'lsa ham. Shunga qaramay, gender farqlariga ham ilmiy hamjamiyatda ham, undan tashqarida ham katta ahamiyat berilyapti.

Gender farqlari haqidagi ilmiy munozara ishtirokchilari ikkita asosiy lagerga bo'linadi: biologik jins va jinsning yaqin munosabatiga ishonadigan biologik determinizm tarafdorlari va gender farqlari jamiyat tomonidan qurilgan deb hisoblaydigan ijtimoiy konstruktivizm tarafdorlari. Turli lagerlar vakillari gender farqlari masalasini tubdan boshqacha tarzda ko'taradilar. Biologik yo'naltirilgan tadqiqotchilar ko'pincha gender farqlari bor yoki yo'qligini so'ramaydilar, lekin sukut bo'yicha ular mavjud deb taxmin qilishadi va ular uchun tushuntirishlarni izlaydilar. Ijtimoiy konstruktivizm tarafdorlari, o'z navbatida, turli ijtimoiy kontekstlarda genderni qurish jarayonlarini

va ijtimoiy ierarxiyalarni yaratishda gender farqlari haqidagi g'oyalardan qanday foydalanilishini o'rganadilar [6].

Bu talqin bizlarga madaniyatni genesisni ko'rib chiqishimizga imkon yaratadi. Bizga ma'lumki ayollar masalasi yillar davomida jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizasiyalar bilan uzviy aloqada bo'lib kelgan. Bu masalaning yuzaga kelishi, rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishi bilan ham bog'liqdir.

Ayollar va erkaklar teng huquqliligi masalasi qadim zamonlardan buyon qizg'in bahslarga sabab bo'lib kelgan. Miloddan 400 yillar avval yashagan sofist Antifont o'z asarlarida barcha odamlarning tabiat tomonidan teng qilib yaratilganligi haqidagi g'oyani birinchilardan bo'lib ilgari surgan. Uning fikricha, tabiat barchani: ayolni ham, erkakni ham teng qilib yaratadi, lekin insonlar o'zlarini tengsiz holatga soluvchi qonunlar odamlarning o'zaro kelishuvi natijasidir [7]. Tabiiy huquqlar tengligi va barcha odamlarning erkinligi haqidagi g'oyani sofizm oqimining boshqa namoyondalarida ham uchratamiz. Jumladan, Likofroning fikricha, faqat qonunlarga shaxsiy huquqlarning kafolati bo'lishi mumkin [8].

Shunday qilib, ayol va erkak teng huquqliligi muammosi doimo hur fikrli insonlar diqqat markazida bo'lgan. Biroq aynan ayolning erkak bilan teng huquqli ekanligini e'tirof etgan mutafakkir qadimgi yunon faylasuf olimi Pifagor edi. U odamlarning turmushi isloh qilinishi hamda falsafaning huquq va erkinlik to'g'risidagi xulosalariga muvofiqlashtirilishi kerakligi haqidagi tasavvurlarni rivojlantirgan. Ushbu nuqtai nazardan u o'zining falsafiy qarashlarida ayol va erkakning teng qilib yaratilishi haqidagi fikrni ilgari suradi. Pifagorning maslakdoshlari esa bu g'oyani davom ettirganlar. Ular inson hayoti adolat va ma'lum chegara, ya'ni o'z o'rnini bilish va his qilish asosida qurilishi lozimligini ta'kidlaydi [9].

Ushbu mazmundagi g'oyani yana bir yunon mutafakkiri Suqrot qonunlarning obyektiv ahloqiy tabiati to'g'risidagi falsafiy ta'limotida rivojlantirgan. Jumladan, u ham insonlarning tabiiy huquqlari tengligini e'tirof etar ekan, polising mantiqan to'g'ri va adolatli qonunlarga bo'ysunishi lozimligini va faqat shunday holatdagina inson erkinligini ta'minlash mumkinligi g'oyasini ilgari suradi [10]. Qadimda turli mintaqalarda ayolning ijtimoiy ahvoli, oila va jamiyatdagi o'rni har xil bo'lgan. Tarixiy manbalarda ifodalanshicha, har doim ham ayolga teng huquqli inson sifatida qaralmagan. Asrlar davomida ayollarga nisbatan ijtimoiy va ma'naviy kamsitishlar ularning ijtimoiy faolligini yanada susayishiga olib keldi.

Ba'zi ayollar asta-sekinlik bilan bu holatni tabiiy deb tan olib, ushbu turmush tarziga ko'nika boshlasalar, boshqalari esa bunday kamsitishlarga turli yo'llar bilan qarshilik ko'rsatishga harakat qilishgan. Uy yumushlari, ro'zg'or tashvishlari, oila boshlig'iga, ota yoki erga so'zsiz itoat qilish, tinimsiz haqoratlarga, ho'rliklarga chidash – ayollarning ichki dunyosi va ruhiyatida ko'rquv va qullik, itoatkorlik paydo bo'lishiga olib keldi. Qadimgi Hindistonda ayol turmush qurish, meros va boshqa hech qanday huquqqa ega emasdi. U zaif fe'lga, yomon axloqqa ega deb hisoblanib, Manu III qonuni uni bolaligida otasiga, yoshligida eriga, erining vafotidan so'ng o'g'liga yoki erining qarindoshlaridan bir erkakka qaram bo'lmoqqa majbur etardi. Hatto ba'zi joylarda eri o'lgach, ayolga yashash taqiqlanardi. Marhum eri bilan uni tiriklayin yoqib yuborish an'anasi ham paydo bo'ldi [11].

Hindlarning muqaddas kitobi – "Veda"da ayol momaqaldiraqdan, o'limdan, zahardan va ilondan ham yomonroq jonzot sifatida tasvirlanadi. Buddizmning ayrim yo'nalishlarida ayollar obrazlari muhim o'rin egallaydi. Buddizmning asosiy yo'nalishi bo'lmish –maxayanada ayol yaxshi, farovon hayot ichida ko'rsatilgan bo'lishiga qaramay, muqaddas yozuvlarda ayollarning ziddiyatli tasvirlanishi natijasida erkaklarning ayollarga nisbatan ikki xil munosabati aks etirilgan. Bir tomondan ayol dono, muloyim, mehribon qilib ko'rsatilsa, boshqa tomondan esa u kishini yo'ldan ozdiruvchi, buzg'unchi mavjudot sifatida ta'riflanadi [12].

Rim jamiyatida nimaiki ko'ngilsizliklar, tartibsizliklar hukm sursa, uning sababini ayoldan qidirdilar. Ular tinimsiz ayollar haqida bahslashar va o'zlarinig nomaqbul ta'riflarini berib, o'z so'zlarini ma'qullashar edi. Jumladan, qirol va poplar "Ayol- iflos", deya baho berdilar. "Uning go'zalligidan ehtiyot bo'lish lozim. Zero, u fitna va g'urur uchun iblisning qurolidir", deya xitob qildilar. Ularga qo'shimcha tarzda ayrimlari ayol to'g'risida, u inson nafsiga shaytonni kiritgan, ayol

erkakni Alloh taqirlagan daraxtga yaqinlashtirgan. Allohning qonunlarini buzgan, erkakni chirkinlashtirgan”, degan fikrni bildirganlar. “Uning gunohkor ekani muqarrar, muhaqqakdir. Ayol qiziqarli ofatdir. Uy va oila uchun tahlikadir. G‘addor bir sevgili, sirli, noma‘lum davomli musibatdir” degan xulosa bildirgan [13].

Islomgacha Arabiston yarim oroli aholisi o‘rtasida ayolning hech qanday o‘rni ham, qadr-qimmatini ham yo‘q edi. Bu holat farzandning tug‘ilishidan boshlanardi. Oilada o‘g‘il bola dunyoga kelsa, sevinishar, xursandchiliklar qilishar, qiz tug‘ilsa esa oilada motamsarolik xukm surib, tezda farzandni yo‘qotish payiga tushishar edi. Ayolning eri oldidagi qadri erining molichalik emasdi. Johiliyat zamonida arab erkaklari ayol bilan bir xonada o‘tirishmas, birga ovqatlanmasdilar. U davrda arablar uch narsada: otda, ayolda, uyda xosiyat yo‘q, deb ishonishardi [14].

Ayniqsa, ajrashgan ayolning turmushi juda nochor ahvolda bo‘lgan, eri uni qiynalsin deb boshqasiga turmushga chiqishiga to‘sqinlik qilar, tinimsiz haqoratlar edi. Shuning uchun idda muddati tugaydigan vaqtda uni yana nikohiga olar va takror qo‘yardi. Qabul qilingan idda muddati bir yil bo‘lgani uchun, ajrashish cho‘zilib ketardi. Er bu holni uch bor takrorlay olardi. Erning o‘limidan so‘ng esa ayollar bir yil matom tutishardi va bir yil idda kutishardi.

Islom dinining vujudga kelishi Arabistonda ijtimoiy-siyosiy hayotni muolaja qiluvchi bir dastur sifatida qarshi olindi. Hayotning barcha jabhalarini qamrovchi Islom ayollar haq-huquqlariga ham katta e‘tibor berdi. Islomda ayolning haqlari quyidagicha ado etilishi lozim deb ko‘rsatilgan.

Ayollarga yaxshi muomalada bo‘lish, ularga nisbatan xushmuomala, shirinso‘z, muloyim munosabatda bo‘lish, nohaqlik va qo‘pollik qilmaslikni targ‘ib etdi. Bu xususida Muhammad Payg‘ambar mo‘minlarning eng to‘la ishonchlisi xush xulqlisidir. Sizlarning yaxshilaringiz ayollarga, zavjalariga yaxshi muomalada bo‘lganlaringizdir, ayollar xususida Allohdan qo‘rqingiz. Zero, siz ularni Allohdan omonat o‘laroq olgansiz, deb ta‘kidlaganlar.

Ayollarga munosabat to‘g‘risida Qur‘oni karimda: “Xotinlarning itoatsizligidan qo‘rqsangiz, avvalo ularga nasihat qilingiz, so‘ng (bu ta‘sir qilmasa) ularni yotoqlarida tark etingiz, so‘ngra (bu ham kor qilmasa,) ularni (majruh bo‘lmagudek darajada) uringiz. Ammo sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqa) yo‘l axtarmanglar, deb qayd qilingan [15].

“Niso” oyatida aytilganidek, itoatsiz ayolni tarbiya va so‘nggi chora sifatida qattiq og‘ritmasdan urishga izn berilgan. Lekin, ma‘lumotlarga ko‘ra Payg‘ambarning o‘zi ayollarini urmagan va xotin kishini urganlarga ham qarshi turgan. “Ne bo‘ldi erkaklarga, xotinlarini qul kabi uradilar, holbuki, ayni kun so‘nggi (tun)da latiflashadilar”, degan hadis ham bu fikrning isbotidir [16].

Ma‘lumki, yuqorida ta‘kidlanganidek, islomga qadar ayrim arab mamlakatlarida oilada qiz farzand tug‘ilsa, fojea alomati deb qaralgan, shu bois, uni tiriklayin ko‘mishgan. Bu odat vahshiylik hisoblanmas, aksincha, ayollarni bunday xo‘rlash odatga aylangan edi. Islomda esa ayol va bolalarni o‘ldirish man etilgan. Bu diniy omillar bilan birga qatorda etnik omillar ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Etnik omillar har xil xalq madaniyatiga oid tarkibiy qismlar asosidagi etnik umumiylikdir. Ya‘ni har bir hudud o‘zining qadriyati, urf-odati va an‘analariga ega, shu nuqtai nazardan gender masalalariga etnik omillarni ta‘siri juda kattadir. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, gender madaniyat ko‘plab bosqichlar o‘tib o‘zining taraqqiyot evolutsiyasiga ega desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, uch guruhdagi xususiyatlar genderning tavsifini oydinlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega: biologik mansublik, jinsga xos rolli stereotiplar, jamiyat talablari asosida erkaklar va ayollar amal qiladigan xulq-atvor hamda o‘zaro munosabat me‘yorlari.

A.V.Krillaning ta‘biricha, gender – jamiyat va madaniyat rivojlanishining mahsuli bo‘lib, u institutsional hamda konvensiya bilan qat‘iylashtirilgan an‘anaviy xarakterga ega tushunchadir. Barcha madaniy-ijtimoiy hodisalar kabi gender ham vaqt bilan bog‘liq holda jarayonli o‘zgaruvchan xarakterga ega [17]. Shuningdek bugungi kunda gender makon va zamonga mos holda o‘zgarib bormoqda.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, gender madaniyati jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyot darajasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. U ayol va erkaklarning huquq, imkoniyat va mas‘uliyatlarining tengligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi qadriyatlar, me‘yorlar, bilimlar hamda xulq-atvorlar tizimini o‘zida mujassamlashtiradi. Gender madaniyatining shakllanishi shaxsning

ijtimoiylashuvi, ta'lim-tarbiya jarayoni, oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari va davlat siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gender madaniyati nafaqat gender tengligini qaror toptirish, balki inson huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va jamiyatning barqaror rivojlanishiga erishishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy sharoitda gender stereotiplarini bartaraf etish, ayollar va erkaklarning barcha sohalardagi faolligini qo'llab-quvvatlash hamda genderni oid bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish gender madaniyatini yuksaltirishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Shu bois gender madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, pedagogik va amaliy faoliyatni yanada takomillashtirish, yosh avlodda gender tengligi tamoyillariga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish hamda jamiyatning barcha qatlamlarida gender masalalariga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori "2030-yilgacha gender tengligiga erishish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi SQ-297-IV-son 28.05.2021.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'RQ-562-son 02.09.2019.
3. Гидденс А. Социология: краткое, но критическое введение. – Лондон: Макмиллан, 1982.
4. Здравомыслова Е. Социальная конструкция гендера и гендерная система в России/ Е.Здравомыслова, А.Темкина//Гендерное измерение социальной и политической активности в переходный период. Сборник научных статей. Выпуск 4. - Санкт-Петербург, 1996. – С.5-11.
5. Hofstede G. Masculinity and Femininity: The taboo dimension of national cultures, 1998. SAGE Publications Inc. – P.238
6. Клецина И. С. От психологии пола — к гендерным исследованиям в психологии // Вопр. психол. 2003. № 1. – С. 61-78.
7. Антология мировой философии. – М., 1969. – Т.1. – С. 322.
8. Нерсесянц. История идей правовой государственности. – М.: 1993. – С.5.
9. Николаев Н. «Кто такой Пифагор?» Универсальная энциклопедия. – Т.2. – С. 422-423.
10. Кессиди Ф. Сократ. – М.,1988. – С.181.
11. An-Naim. Women and Islam. Oxford, 1997. L. 7, p.31.
12. Paul D. Women in Buddhism: images of the feminine in the Mahayana tradition. Berkley.1985. – p.19.
13. Плоссь Г. Женщина в естествоведении и народоведении. Антропологические исследования. – Сыктывкар,1995. –Т.3. – С. 282-283.
14. Грюнебаун Г.Э. Классический ислам. Очерк истории. – М., 1986. – С.13.
15. Курьони Карим / таржима ва тафсири: А. Мансур. – Тошкент: Хилол нашриёти, 2017. – Сура «Ан-Нисо», оят 34.
16. Жабборов С. Мусулмон хукуки ва одат нормалари. –Тошкент, 2001. 47 б.
17. Кирилина А.В. Исследование гендера в лингвистических научных дисциплинах / А.В. Кирилина // Гендерное образование всистеме высшейшколы: состояние иперспективы: материалы межд. науч.-практ. конф. – Иваново, 2003. – С. 132-136.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000